
QUMARIQ MFYDA “XAVFSIZ MAHALLA-XAVFSIZ XONADON” TEZKOR-PROFILAKTIK TADBIR BO‘LIB O‘TMOQDA

Toshloq tumanidagi mahallalarda jamoat tartibini saqlash, tezkor-kriminogen vaziyat barqarorligini ta‘minlash, sodir etilishi mumkin bo‘lgan jinoyat va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish maqsadida “Xavfsiz mahalla – xavfsiz xonadon” maxsus-profilaktik tadbirlari o‘tkazilmoqda.

Bugun Qumariq MFYda o‘tkazilayotgan profilaktik tadbirda ichki ishlar xodimlari, mahalla beshligi, kommunal soha vakillari hamda mahalla faollari ishtirok etmoqda.

Tadbir doirasida ishtirokchilar mahalla hududida jinoyatchilikni barvaqt oldini olish, huquqbuzarliklar profilaktikasini ta‘minlash maqsadida xonadonma xonadon o‘rganishlar olib bormoqdalar.

Shuningdek, hududdagi kam ta‘minlangan oilalar, nogironligi bor fuqarolar va yakka yolg‘iz keksa avlod vakillarini holidan xabar olinib, murojaatlari tinglanmoqda.

2023-09-11 15:41:10